



7-SINF O‘QUVCHILARNING INTELEKTUAL-MADANIY SALOHIYATINI
RIVOJLANTIRISHDA “CHOL VA DENGIZ” ASARINI KOGNITIV
YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Umarova Muniraxon Burhoniddin qizi

Namangan davlat pedagogika
instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur 7-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan Amerika yozuvchisi Ernest Heminguey qalamiga mansub “Chol va dengiz” qissasini kognitiv yondashuv asosida o‘qitishning ilmiy pedagogik jihatlari tahlil qilindi. Badiiy asar tahlili orqali kognitiv yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari yortildi. Shuningdek, o‘quvchilarning intellektual-madaniy salohiyatini rivojlantirishning samarali usullari ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kognitiv yondashuv, intellektual salohiyat, kompetensiya, obraz, metod, usul, adabiy tahlil.

Annotation. The scientific and pedagogical aspects of teaching the novella “The Old Man and the Sea” by the American writer Ernest Hemingway, included in the 7th-grade literature textbook, on the basis of a cognitive approach were analyzed. Through the analysis of the literary work, the theoretical and practical aspects of the cognitive approach were elucidated. Also, effective methods for developing students’ intellectual and cultural potential were developed.

Key words: cognitive approach, intellectual potential, competence, image, method, technique, literary analysis.

Kirish. Jahon adabiyotining eng sara namunalarini maktab darsliklariga kiritish orqali o‘quvchilarda poetik tafakkur, badiiy didni shakllantirish, tanqidiy tafakkurni shakllantirish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Chol va dengiz” qissasi inson ichki dunyosi, irodasi, hayotga bo‘lgan intilish, umr mazmuni, vaqt qadri, tabiat va inson munosabatini chuqur badiiy falsafiy yoritgani bilan ajralib turadi.

7-sinf o‘quvchilarining dunyoni anglashga intilishi hamda tafakkur shakllanish bosqichida bo‘lgani uchun mazkur roman aynan 7-sinf darsligiga kiritilgan. Asarda





umumbashariy va umumfalsafiy g'oya va qarashlar aks etganligi sababli asarni kognitiv yondashuv asosida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Kognitiv yondashuv – ta'lim jarayonida o'quvchining bilish kompetensiyasini rivojlantirishga, ma'lumotni ongli tahlil qilishga, umumlashtirishga va baholashga qaratilgan pedagogik amaliyotdir.

Badiiy adabiyotni kognitiv yondashuv bilan tahlil qilishda quyidagi jihatlariga e'tibor berish lozim:

1) obrazli tafakkur – qahramon xarakteri, ichki konfliktlarning hayotiy ahamiyati;

2) ramziy timsollar – baliq, dengiz timsollarni falsafiy tahlil qilish;

3) shaxsiy tajriba bilan bog'lash – o'quvchi o'z hayotiy tajribasi orqali chuqur idrok etish;

4) muammoli asosda savol-javob – o'quvchining faolligi va mustaqil fikrlashni rag'batlantirishdan iborat.

“Chol va dengiz” qissasini kognitiv o'qitish usullari:

1. Asar bilan tanishish idrok bosqichi. Bunda o'quvchilarga asar qisqacha tanishtiriladi. Asar nomi, mavzusi va qahramonlar haqida savol-javob qilish orqali oldindan fikr yuritiladi. Bunda kognitiv jarayon o'quvchi asarni qanday qabul qiladi? degan savol qo'yiladi. Kognitiv talablar asosida o'quvchilarga savollar tuziladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar:

a) “Chol va dengiz” qissasidan qanday g'oya tushundingiz? Asarning Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi nimadan?

b) Amerikalik mashhur yozuvchi Uilyam Folkner Hemingueyni “mag'lubiyatlardan paydo bo'lgan adib” deb atagan edi. Bu ta'rif nechog'lik to'g'ri?

c) Nega asar nomi “Chol va dengiz” deb nomlangan?

2. Assotsiativ bosqichi. Matnni bosqichma-bosqich o'qish. Asardagi asosiy voqealar va ramzlarni tahlil qilishdan iborat bo'lib, o'quvchi asarni o'qishda avvalo, tabiat va inson kurashi timsollarini ramzlar orqali qabul qiladi. O'quvchi o'z hayotidagi kurash, qat'iyat, umid kabi hislarni asardagi qahramon bilan bog'laydi. Asarda qo'llangan dengiz – cheksizlik, sinov va hayot timsoli sifatida ongda qayta jonlanadi. Qari baliqchi chol esa insonning kuchsizligi emas, balki iroda, sabr va ma'naviy qudratning kognitiv modeli sifatida gavdalanadi. Asarda kema – insonning hayot yo'li,





iroda va matonati, tabiat bilan munosabati hamda ichki ruhiy dunyosining ramziga aylanadi. Umuman asardagi ramziy timsollar o'quvchi ongidagi asotsatsiya uyg'otadi.

Asar quyidagicha boshlanadi:

...Chol qayiqda yolg'iz o'zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to'rt kun ham to'ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo'q. U bilan qirq kun bola birga bo'ldi. Hadeganda qo'li quruq qaytavergach, ota-onasi unga endi cholning o'taketgan "sa-lao", ya'ni "o'lguday omadi yurishmagan odam" ekanini aytib, bundan buyon boshqa qayiqda dengizga chiqishi kerakligini qulog'iga quydilar. Haqiqatan ham birinchi haftaning o'zidayoq bu qayiqda baliq desa arziguday uchta chta baliq tutib kelishdi. Deyarli har kuni cholning dengizdan quruq qaytayotganini ko'rib bola ich-ichidan ezilar edi. U chol-ning uskunalari, changak, gapun va machtaga o'ralgan yelkanlarini tashishga yordamlashgani qirg'oqqa kelardi. Dag'al matodan to'qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo'lib ketgan, o'rog'liq holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o'xshardi. Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigarrang dog'lari bilan qoplangan edi. Dog'lar cho'zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiq izlari ko'rinaradi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna edi. Cholda nimaiki bor bo'lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi.

Diqqat! Chol sizda qanday tasavvur uyg'otdi? Cholga yordam bergan bola kim bo'lishi mumkin? Nega asar "Chol qayiqda yolg'iz o'zi Golfstrimda baliq ovlardi" jumlasini bilan boshlanmoqda?

3. Tushunish bosqichi. O'quvchi matnning ma'no qatlamlarini qanday talqin qiladi. Asar qahramoni Santiyago tilidan aytilgan: "...inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan, - dedi u. Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi" degan gaplari kitobxon tafakkurida semantik kodga aylanadi. O'quvchilar o'z fikrlarini kichik guruhlarda muhokama qiladilar.

4. Interperitatsiya bosqichi. O'quvchilar asar mavzusi va qahramonlar harakatining shaxsiy hayotga ta'siri haqida mustaqil izoh beradilar. O'quvchi asardagi





har bir detal – baliq, qayiq, dengiz, qushlar, arqon, bola, tush - ramziy metaforik ma'nolarga ega ekanligini sezadi. Natijada o'quvchi ongida "kognitiv xarita" yaratadi. Dengiz – hayot, baliq – orzu, chol – inson, kurash – yuksalish, qush – inson erkinligi, ruhiy parvoz, ip – munosabatlarni bog'lovchi, aloqa, bola (Manolin) – yosh avlod, umid, kelajak. Ushbu ramzlar o'quvchilarning abstrakt ttafakkuri, madaniy idrok va intellektual tahlil ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim didaktik vazifa bajaradi.

5. Kognitiv natijalar:

O'quvchilarning tahliliy tafakkuri va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ijtimoiy, ma'naviy qarashlar o'sadi, badiiy tafakkur rivojlanadi. Ijtimoiy masalalarni hal qilishda kreativlik va falsafiy yondashuv shakllanadi. "Chol va dengiz" qissasi kognitiv yondashuvda o'quvchining idrok, tafakkur, asotsiativ va refleksiv qobiliyatlarini faollashtiradi. Dars jarayonini kognitiv usullarda olib borish o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiradi. Jamiyat va shaxs o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni tog'ri hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon adabiyotini o'qitishda kognitiv yondashuv – bu talabalarning matnni shunchaki o'qib, eslab qolishidan ko'ra, faol fikrlash, tahlil qilish, baholash va ijodiy fikrlash orqali asarni chuqur anglashini ta'minlashga qaratilgan metodologiya, bu esa bilimlarni o'zlashtirish va qo'llashni yaxshilaydi. Bu yondashuv, adabiy hodisalarni kognitiv jarayonlar (xotira, e'tibor, tafakkur) bilan bog'lab, o'quvchilarning matn mazmunini o'zlashtirishdagi ongli jarayonlariga urg'u beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik // Z.I.Mirzayeva, K.Q.Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 42-61-betlar.
2. B.To'xliyev. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik // Toshkent, "O'qituvchi" 2003.
3. Qambarova S. Adabiyot darslarida kognitiv va kreativ yondashuvlar samaradorligi. I. Uluslararası Turkbilim öğrenci kurultayı. Bildiriler kitabı. Nur-Sultan, 2021. 349-354.
4. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. Science and innovation. Toshkent, 2023.

